

TA'LIM BOZORIDAGI TADBIRKORLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OPERATSION BOSQICHLARI

Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o‘g‘li

Namangan muhandislik-qurilish institute tayanch doktoranti (PhD)

sodikjonabdusattorov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limgiz xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish strategiyalari va operatsion bosqichlari muhokama qilinadi. Unda o'quv dasturlarini rivojlantirish, texnologiyadan samarali foydalanish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish va marketingga yo'naltirilgan yondashuvlar tavsiflanadi. Muallif ta'limgiz muassasalarining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyaviy boshqaruv, sifatni nazorat qilish va talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini takomillashtirishni ta'kidlaydi. Shuningdek, revalyutsion o'zgarishlar kiritish zarurati paydo bo'lganda amalga oshirilishi kerak bo'lgan qadamlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Ta'limgiz xizmatlari bozori, tadbirkorlik samaradorligi, operatsion jarayonlar, raqamli ta'limgiz platformalari, strategik rejulashtirish, marketing, sifat nazorati, moliyaviy boshqaruv.*

ОПЕРАТИВНЫЕ ШАГИ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

Абдусатторов Содикжон Хакимжонович

*Докторант (PhD) Наманганского инженерно-строительного
института*

sodikjonabdusattorov@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются стратегии и практические шаги по повышению эффективности предпринимательской деятельности на рынке образовательных услуг. В нем описываются подходы к разработке учебных программ, эффективному использованию технологий, оптимизации операционных процессов и маркетингу. Автор подчеркивает важность улучшения финансового управления, контроля качества и служб поддержки студентов для повышения устойчивости и конкурентоспособности учебных

заведений. В нем также анализируются шаги, которые следует предпринять при возникновении необходимости в революционных изменениях.

Ключевые слова: Рынок образовательных услуг, эффективность бизнеса, операционные процессы, цифровые образовательные платформы, стратегическое планирование, маркетинг, контроль качества, финансовый менеджмент.

OPERATIONAL STEPS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTREPRENEURS' ACTIVITIES IN THE EDUCATION MARKET

Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon ugli

PhD student at Namangan Engineering and Construction Institute

sherzod.saloxitdinov@mail.ru

Abstract: This article discusses strategies and operational stages for improving the efficiency of entrepreneurial activity in the educational services market. It describes approaches to curriculum development, effective use of technology, optimization of operational processes, and marketing. The author emphasizes the need to improve financial management, quality control, and student support services to increase the sustainability and competitiveness of educational institutions. It also analyzes the steps that should be taken when the need for revolutionary changes arises.

Keywords: Educational services market, business efficiency, operational processes, digital educational platforms, strategic planning, marketing, quality control, financial management.

KIRISH

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Texnologiyalardagi yutuqlar va innovatsion ta’lim usullariga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan tadbirkorlar turli ta’lim platformalari, mahsulotlari va xizmatlarini yaratish va kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Dastlab ushbu tadbirkorlarning asosiy faoliyat maydoni bo‘lgan ta’lim xizmatlari bozori bilan tanishib chiqish lozim. "Ta’lim xizmatlari bozori" atamasi ta’lim mahsulotlari va xizmatlarini sotib olish va sotishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy tizim yoki sektorni anglatadi. Bu bozor ta’lim bilan bog‘liq keng ko‘lamli faoliyatni, jumladan, nodavlat va davlat maktabgacha ta’lim muassasalari, davlat va xususiy muktab ta’limi, davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalari, o‘quv dasturlari, repetitorlik xizmatlari, onlayn kurslar, o‘quv materiallari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Keng ma’noda ta’lim xizmatlari bozori bilim, ko‘nikma va ma’lumotlarni to‘lov yoki boshqa kompensatsiya shakllari evaziga yetkazish bilan bog‘liq bitimlar va almashinuvlarni qamrab oladi. Bu

bozor turli xildagi sarmoyadorlarni, masalan, ta’lim muassasalari (muktablar, kollejlar, universitetlar), xususiy repetitorlar, ta’lim texnologiyalari kompaniyalari, o‘quv materiallarini nashr etuvchilar va ta’lim mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etuvchi boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim xizmatlari bozori faoliyatiga hukumat siyosati, texnologik taraqqiyot, madaniy tendensiyalar va ishchi kuchining muayyan malakalariga bo‘lgan talab kabi omillar ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ushbu bozor ma’lum bir jamiyatda ta’lim olish huquqi, sifati va arzonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, u yangi texnologiyalar va o‘qitish usullari paydo bo’lishi orqali doimiy o‘zgarishlar va innovatsiyalar bilan boyib boradi.

Davlatning klassik 3 funksiyasiga – mudofaa, sog‘liqni saqlash va ta’lim – ko‘ra ta’lim bu o‘z-o‘zidan davlatning zimmasidagi soha bo‘lishi zarur. Lekin bozor iqtisodiyotining ko‘rinmas qo‘llari hatto ushbu ta’lim sohasini ham o‘z ta’sir doirasidan chetda qoldirmagan holda, ta’lim xizmatlari bozorida “ta’lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor” subyektini yaratdi. “Ta’lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor” - bu ta’lim sohasidagi turli ehtiyoj va muammolarni hal qilish uchun imkoniyatlarni aniqlaydigan va innovatsion yechimlarni yaratib, ulardan moliyaviy foyda oladigan shaxslar guruhi hisoblanadi.

Ta’lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish ta’lim muassasalarining umumiyligi ishlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun biznes strategiyalarini qo‘llashni anglatadi. Bu xizmat sifatini saqlab qolgan holda xarajatlarni kamaytirish uchun operatsion jarayonlarni optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Bunda raqamli ta’lim platformalari kabi yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim va boshqaruv vazifalarini soddalashtirish mumkin. Muassasalar talabalarni jalb qilishga, samarali marketing va brendlash orqali e’tibor qaratishi, shuningdek, talabalar ehtiyojlariga javob beradigan yangi takliflarni yaratishi kerak. Moliyaviy barqarorlikni ta’minalash va qonunlarga rioya qilish zarur, bu esa ta’lim tashkilotlariga raqobatbardosh bozor sharoitida muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi. Maqsad yuqori sifatli ta’limni yetkazib berishni o‘sish va samaradorlik kabi biznes talablariga muvofiqlashtirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim xizmatlari bozori tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan turli adabiyotlarda yoritilgan. Xususan:

OECD (2024) manbasida ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid statistikalar taqdim etilgan. Xususan, texnologiyalarning ta’lim samaradorligini 25% oshirishi haqidagi dalillar maqoladagi asosiy g‘oyalardan birini isbotlashda muhim o‘rin tutadi. UNESCO hisobotlari ta’limdagi global notekislik muammolarini yoritib beradi. Mazkur tahlillar ta’lim

tizimidagi tengsizliklarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi.

McKinseyning tadqiqotlari ta'lism sohasida raqamli transformatsiya va uning ijtimoiy ta'siri haqidagi ma'lumotlarni ochib beradi. Ushbu ma'lumotlar maqolaning texnologiya orqali ta'lism sifatini oshirish masalasidagi asosiy dalillariga zamin yaratdi. Statista taqdim etgan global tendensiyalar raqamli o'quv platformalarining keng qo'llanilishini tahlil qilish imkonini berdi. Jumladan, 2024-yilda virtual ta'lism platformalaridan foydalanuvchilar soniga oid statistika maqoladagi dalillarni isbotlovchi muhim manba sifatida ishlatilgan.

Deloitte hisobotlarida ta'lism tizimlarini moliyalashtirishda byudjetni optimallashtirishga oid qimmatli tavsiyalar keltirilgan. Ularning moliyaviy strategiyalari maqolada texnologiyaga sarmoya kiritishning iqtisodiy ahamiyatini yoritish uchun ishlatilgan. Jahon bankining ma'lumotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lismni moliyalashtirish masalalarini tahlil qilish uchun asos bo'ldi. Ta'lism uchun ajratilgan resurslarning foydalanish samaradorligi haqidagi statistikalar maqolani yanada ishonchli qildi.

EY tahlillari ta'lism infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ta'lism sifatini yaxshilash bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar maqolaning moliyaviy tavsiyalariga zamin yaratgan. Microsoftning tadqiqotlari o'qitish jarayoniga sun'iy intellekt va virtual haqiqat texnologiyalarining joriy etilishi bo'yicha qimmatli statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Ularning 5G va VR texnologiyalaridan foydalanishning ta'limga ijobiy ta'siri haqidagi xulosalari maqoladagi fikrlarni to'ldirgan.

PwC tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlar akademik va sanoat sektorlari o'rtaqidagi hamkorlikning ahamiyatini ochib beradi. Ushbu ma'lumotlar maqolada universitet va sanoat o'rtaqidagi aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan dalillarni asoslashda foydalanilgan. PISA tadqiqotlari xalqaro miqyosda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha aniq ma'lumotlarni taqdim etgan. Ushbu ma'lumotlar maqoladagi o'quvchilar qobiliyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni isbotlash uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda, ta'lism muassasalarining samaradorligini oshirish bo'yicha raqamli transformatsiya, marketing va sifatni boshqarish masalalari asosiy ilmiy e'tibor markazida ekani aniqlanadi. Ushbu ilmiy ishlanmalardan foydalanish tadqiqotning nazariy bazasini mustahkamlash va amaliy yechimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Tadqiqot ta'lism xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish uchun amaliy tadqiqotga asoslangan. Unda sohaning holati, mavjud

muammolar va imkoniyatlarni aniqlash uchun muassasalarining ichki tahlili va bozorda raqobat tahlili o'tkazildi. Ichki tahlilda o'quv dasturlari, ma'muriy jarayonlar, moliyaviy holat va infratuzilmaning hozirgi holati o'rghanildi. Bozor tahlilida esa raqamli transformatsiya, innovatsiyalar va iste'molchilarining talablari kabi joriy tendensiyalar aniqlanib, raqobatchilarining strategiyalari o'rghanildi. Monitoring va baholash jarayonlarida tashkilotning belgilangan maqsadlariga erishish darajasi o'lchanib, zaruriy tuzatishlar amalga oshirildi. Ushbu metodologik yondashuv raqamli texnologiyalar, sifatni boshqarish va talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini takomillashtirish orqali ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirishga qaratildi. Mavzuni ilmiy o'rghanish, statistik tahlillar, mantiqiylilik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadi, strategik va operatsion yondashuvlar tashkilotlarning barqarorligi, raqobatbardoshligi, va ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga imkon beradi. Ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini muqim tarzda oshirib borish uchun ushbu sohadagi tadbirkorlar bir nechta strategik va operatsion bosqichlarni doimiy amalga oshirib borishlari zarur bo'ladi:

Ta'lim takliflarini rivojlantirish. O'quv dasturlarini zamonaviy talablar va texnologiyalarga moslashtirish talabalarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, PISA 2021 hisobotiga ko'ra, mehnat bozoriga yo'naltirilgan dasturlarni joriy qilgan ta'lim muassasalarida talabalarning bitirish darajasi 87% ga yetgan bo'lsa, an'anaviy dasturlarda bu ko'rsatkich 73% ni tashkil qilgan. Shaxsiylashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash bilan o'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini 15% ga yaxshilashgani aniqlangan [1].

Texnologiyadan foydalanish. Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish global ta'lim tizimini tubdan o'zgartirdi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda o'quvchilarining 63% elektron ta'lim resurslarini ishlatsa [2]. Sun'iy intellekt yordamida moslashuvchan o'qitishni tatbiq etgan maktablarda esa talabalar muvaffaqiyati 25% ga oshgan [3]. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari ta'lim sohasidagi samaradorlikni 30% ga oshirishini Microsoft 2023 yili o'tkazgan tadqiqot tasdiqlagan [4].

Operatsion samaradorlikni oshirish. Ta'lim muassasalarida ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish vaqtini 40% gacha tejashta yordam beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan ro'yxatdan o'tish tizimlari talabalarning ruxsat olish vaqtini o'rtacha 65% ga qisqartirgan. Samarali ma'lumotlar boshqaruvi tizimini qo'llagan muassasalar daromadining 20% gacha ortganligi kuzatilgan [5].

Marketing va targ'ibot. Maqsadli marketing strategiyalari orqali talaba qabul qilish darajasi 35% ga oshirilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanadigan ta'lif muassasalari 15% ko'proq talabalar e'tiborini qozonishi mumkin. Masalan, Finlandiya o'quv muassasalarining xalqaro talabalarni jalb qilish kampaniyasi muvaffaqiyati natijasida chet ellik talabalar soni 10 yil ichida 50% ga oshgan [6].

Sifatni tekshirish. Akkreditatsiyani olish o'quv dasturlariga ishonchni 40% oshiradi [7]. Qayta aloqa mexanizmlaridan foydalangan muassasalar ta'lif sifatini 23% ga yaxshilagan [8]. Doimiy kasbiy rivojlanishga sarmoya kiritgan maktablar esa PISA ko'rsatkichlari bo'yicha o'quvchilarning natijalarini 18% ga oshirgan [9].

Strategik hamkorlik. Sanoat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilgan tashkilotlarda talabalar uchun stajirovkalar soni 40% ga oshgan. Akademik kelishuvlar esa qo'shma dasturlar orqali ilmiy natijalarni 30% ga yaxshilagan[10].

Moliyaviy boshqaruv. Xarajatlarni optimallashtirish loyihami investitsiya qilgan ta'lif muassasalari iqtisodiy samaradorlikni 20% ga oshirishga muvaffaq bo'lgan. Turli xil moliyalashtirish manbalaridan foydalanish muassasalarning 60% byudjetiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan [11].

Monitoring va baholash jarayoni. Raqamli baholash vositalarini tatbiq etgan maktablarda o'quvchilarning natijalari o'rtacha 15% ga oshgan. Pilot dasturlar yordamida joriy etilgan texnologik yangiliklar tezlikni 25% gacha oshirib, natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [12].

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar ta'lif muassasalari uchun aniq strategik va operatsion yondashuvlarning qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya, resurslardan samarali foydalanish va talabalar ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yish orqali ta'lif bozoridagi tadbirkorlar o'z tashkilotlari uchun raqobat ustunligini ta'minlashlari mumkin. Manfaatdor tomonlarni faol jalb qilish va uzluksiz tahlillar esa uzluksiz yaxshilanishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Lekin doim ham ishlar ko'ngildagidek ketavermaydi. Qandaydir xato va kamchiliklar tufayli tashkilot samaradorligi tushib ketganida esa revalyutsion tarzda ba'zi bir o'zgartirishlarni kiritish zarur bo'ladi. Bu holatda korhonalar ta'lif xizmatlari bozorida o'z faoliyati samaradorligini tiklash uchun bir necha qadamlarni amalga oshirishlari lozim.

1. Baholash va rejalshtirish: Ta'lif xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning birinchi bosqichi har tomonlama baholash va batafsil rejalshtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Unga ko'ra bitiruv stavkalari, talabalar baholari, standartlashtirilgan test ballari va boshqa akademik yutuqlar kabi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqiladi; ma'muriy jarayonlarni, jumladan, ro'yxatga olish tartib-qoidalarini, rejalshtirishni, resurslarni taqsimlanishini va professor-o'qituvchilarning ish yukini tahlil qilinadi; muassasaning moliyaviy holatini,

jumladan, daromad manbalarini, xarajatlarni, byudjetni taqsimlashni va iqtisodiy samaradorlikni baholanadi.

Tashkilotning ichki tahlili tugaganidan so‘ng ushbu soha bozori tahlildan o‘tkaziladi. Unda ta’lim sektoridagi raqamli transformatsiya, gibridd o‘qitish modellari va rivojlanayotgan texnologiyalar kabi joriy tendensiyalarni aniqlanadi; raqobatchilarning kuchli tomonlarini, zaif tomonlarini, narx strategiyalarini va noyob sotish takliflarini tahlil etiladi; so‘rovlari, fokus-guruuhlar va fikr-mulohazalar mexanizmlari orqali talaba va ota-onalarning umidlari, hohish-istaklari va shikoyatlari kabi ma’lumotlar to‘planadi.

Shundan so‘ng tashkilotning ichki imkoniyatlari birma-bir ko‘zdan kechiriladi. O‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarning malakasi, tajribasi va malakasini oshirish ehtiyojlarini baholanadi; O‘qitish, o‘rganish va boshqarish uchun ishlataladigan texnologik vositalar va platformalarning hozirgi holatini ko‘rib chiqiladi; jismoniy infratuzilmaning, jumladan, sinflar, laboratoriylar, kutubxonalar va dam olish maskanlarining yetarliligi va holatini baholanadi.

Baholash natijalari asosida aniq maqsadlar qo‘yiladi. Maqsadlar talabalarning qoniqishini oshirish, ro‘yxatga olishni ko‘paytirish, akademik natijalarni yaxshilash va operatsion xarajatlarni kamaytirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Maqsadlarga erishish uchun korhona samaradorligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etishi mumkin bo‘lgan sohalar bo‘yicha rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi. O‘quv dasturidagi yangilanishlar va innovatsiyalarni sanoat ehtiyojlariga moslashtirish uchun rejalashtirish; yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va mavjud raqamli infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha bosqichlarni belgilash; samaradorlik uchun avtomatlashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin bo‘lgan muayyan ma’muriy jarayonlarni aniqlash;

Joriy operatsiyalarni to‘liq baholash juda muhimdir. Bu jarayonda asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi va ular belgilangan maqsadlar bilan solishtiriladi. PISA kabi ma’lumotlarga asoslangan tahlillar eng dolzarb muammolarni aniqlashga yordam beradi. McKinsey tadqiqotlariga ko‘ra, ma’lumotlarga asoslangan baholash ta’lim natijalarini 15% ga yaxshilashga olib kelishi mumkin. To‘g‘ri rejalashtirish aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi. Strategik rejalashtirish tashkilotning vazifalari, maqsadlari va mavjud resurslariga mos ravishda amalga oshirilishi lozim.

2. Manfaatdor tomonlarni jalb qilish: O‘qituvchilar, xodimlar, talabalar va ota-onalarni o‘zgarish jarayonlariga jalb qilish juda muhimdir. Bu hamkorlik barcha manfaatdor tomonlar orasida umumiyl tushuncha hosil qiladi va o‘zgarishlarga nisbatan ijobjiy munosabat shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’lim siyosati va hisobdorlikni yaxshilaydi.

3. Pilot dasturlar: To‘liq ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirishdan oldin, pilot dasturlar orqali yangi tashabbuslarni sinovdan o‘tkazish muhimdir. Bu yondashuv tashkilotlarga kichik ko‘lamda eksperimentlar o‘tkazish va fikr-mulohazalar yig‘ishga

imkon beradi. UNESCO pilot dasturlarini ta’limdagi muammolarni hal qilish uchun tavsiya qiladi. Masalan, yangi uslubiyotni sinovdan o’tkazgan maktablar, samarali deb topilgan usullarni kengaytirgach, o‘quvchilar natijalarini 12-15% ga yaxshilagan.

4. Monitoring va baholash: Doimiy monitoring jarayoni o‘zgarishlarning qanchalik samarali ekanligini kuzatish va zaruriy o‘zgartirishlarni kiritishga yordam beradi. O‘quvchilar natijalari, davomati kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari bilan birga tahlil qilinishi kerak.

5. Kengaytirish: Muvaffaqiyatli tashabbuslar boshqa bo‘limlar yoki kampuslar bo‘ylab kengaytirilishi lozim. Pilot dasturlarda o‘z samarasini ko‘rsatgan o‘zgarishlar butun tizim bo‘ylab amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda doimiy ravishda manfaatdor tomonlarni jalg qilish muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta’lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish hozirgi zamon talablariga moslashishning muhim omillaridan biridir. Mazkur maqolada tadbirkorlikning samaradorligini oshirish uchun qator strategik va operatsion choralar tavsiya etilgan bo‘lib, ular ta’lim muassasalarining barqarorligini ta’minlash hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Ayniqsa, raqamlı transformatsiya, jarayonlarni avtomatlashtirish va marketingga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada quyidagi asosiy natijalar va tavsiyalar ilgari surildi:

Xarajatlarni kamaytirish va sifatni saqlab qolgan holda operatsion samaradorlikni oshirish uchun avtomatlashtirish tizimlaridan keng foydalanish lozim;

Ta’lim sifatini oshirish uchun elektron platformalar, sun’iy intellekt va virtual haqiqat kabi texnologiyalarni faol joriy qilish taklif etiladi;

Talabalar va ota-onalar ehtiyojlarini o‘rganish, maqsadli marketing orqali muassasaning nufuzini mustahkamlash va brendlash faoliyatini kuchaytirish zarur;

Akkreditatsiya standartlariga rioya qilish, doimiy ravishda o‘qituvchilar malakasini oshirish va talabalar fikr-mulohazalarini tizimli ravishda yig‘ish sifatni ta’minlashga ko‘mak beradi;

O‘zgarish jarayonlarida professor-o‘qituvchilar, talaba va ota-onalar ishtirokini kuchaytirish orqali strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Ta’lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarimiz:

- Ta’lim muassasalari o‘z strategik rejalash faoliyatida raqamlı texnologiyalar va talaba markazli xizmatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak;

- Davlat va nodavlat sektorlari o‘rtasida moliyaviy va strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jumladan, grantlar va subsidiyalar imkoniyatlarini kengaytirish zarur;

- Innovatsion g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish uchun kichik miqyosdagi pilot loyihalarni yo‘lga qo‘yish taklif etiladi;

- Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni kuchaytirish uchun avtomatlashgan monitoring va baholash tizimlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir;

- Ta’lim muassasalari uzoq muddatli strategiyalarida yangi texnologiyalarni integratsiya qilishga ko‘proq e’tibor berishlari lozim;

Xulosa qilib aytganda, tavsiya etilgan choralar va yondashuvlarni tizimli amalga oshirish orqali ta’lim muassasalari samaradorligini oshirishi, raqobatbardosh bozor sharoitida barqaror rivojlanishga erishishi va yuqori sifatli ta’lim xizmatlari taklif qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Programme for International Student Assessment (PISA) Results. OECD Publishing. PISA (2021).
2. Global Education Monitoring Report. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://unesdoc.unesco.org>
3. Technology and the Future of Education: Insights on Digital Transformation. McKinsey & Company (2023).
4. The Role of AI and VR in the Classroom. Microsoft Publishing Press.
5. Improving Operational Efficiency in Education. <https://www2.deloitte.com>
6. Education Marketing Statistics and Trends. <https://www.statista.com>
7. The State of Global Education Financing. World Bank (2023). <https://www.worldbank.org>
8. Education at a Glance 2024: Indicators of Educational Performance. OECD Publishing.
9. Programme for International Student Assessment (PISA) Results. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/pisa>
10. Collaboration Between Academia and Industry: Benefits and Challenges. PwC (2023). <https://www.pwc.com>
11. Optimizing Educational Budgets: Financial Best Practices for Academic Institutions. <https://www.ey.com>
12. Technology and the Future of Education: Insights on Digital Transformation. McKinsey & Company (2023).